

HOJI MUIN PUBLITSISTIKASIDA CHEGARALANGAN LUG‘AVIY BIRLIKLARNING LISONIY VOQELANISHI

Tojiboyev Doniyor Dilshodovich,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
doniyortojiboyev642@gmail.com
tel: (91) 989-44-22

Annotatsiya. Maqolada jadid ma’rifatparvar adibi Hoji Muin Shukrullo o’g’lining publitsistik asarlari matnida qo’llangan chegaralangan leksik birliklar: okkazional yasalmalar va neologizmlarning leksik-semantik, grammatik xususiyatlari o’rganilgan. Bunday lug‘aviy birliklar qo’llanishidagi lisoniy va nolisoniy omillar davr adabiy tili nuqtayi nazaridan ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: chegaralangan leksika, okkazionalizm, neologizm, umumtil neologizmi, adabiy norma, anormal, binar oppozitsiya, morfologik struktura, kalkalash, grammatik shakl.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ ОГРАНИЧЕННЫХ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПУБЛИКАЦИИ ХАДЖИ МУИНА

Тажибоев Даниёр Дилшодович,
Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы
независимый исследователь

Аннотация. В статье рассматриваются лексико-семантические и грамматические особенности ограниченных лексических единиц: окказиональных образований и неологизмов, употребляемых в публицистическом творчестве позднего просветителя Хаджи Муина Шукрулло. Лингвистические и неязыковые факторы употребления таких лексических единиц были научно проанализированы с точки зрения литературного языка того периода.

Ключевые слова: ограниченная лексика, окказионализм, неологизм, универсальный неологизм, литературная норма, аномальная, бинарная оппозиция, морфологическая структура, орфография, грамматическая форма.

LINGUISTIC REALIZATION OF LIMITED LEXICAL UNITS IN THE PUBLICITY OF HAJI MUIN

Tojiboyev Daniyor Dilshodovich,

Tashkent State University of
Uzbek Language and Literature
independent researcher

Annotation. The article examines the lexical-semantic and grammatical features of the limited lexical units: occasional formations and neologisms used in the journalistic works of the late enlightened writer Haji Muin Shukrullo. Linguistic and non-linguistic factors in the use of such lexical units were scientifically analyzed from the point of view of the literary language of the period.

Key words: limited lexicon, occasionalism, neologism, universal neologism, literary norm, abnormal, binary opposition, morphological structure, spelling, grammatical form.

Kirish. Til lugʻat boyligining tarkibi turli aspektlarda oʻrganiladi va tasniflanadi. Jumladan, tilda soʻzlashuvchi kishilarning nutqida qoʻllanishi jihatidan oʻzbek tili lugʻat tarkibini *qoʻllanish doirasi chegaralanmagan* hamda *qoʻllanish doirasi chegaralangan* lugʻaviy birliklarga ajratish mumkin. Bunday guruhlashda *qoʻllanish doirasi chegaralanmagan leksika* qaysi shevaga, qaysi hududga, qaysi kasb yoki sohaga mansubligidan qatʼiy nazar shu tilda muloqot qiluvchi barcha kishilar nutqida cheklanmagan darajada isteʼmolda boʻlgan leksik birliklarni oʻz ichiga oladi. *Qoʻllanish doirasi chegaralangan leksika* esa qoʻllanish davri hamda qoʻllanish doirasiga koʻra keng isteʼmoldan cheklanishda boʻlgan lugʻaviy birliklarni xarakterlaydi. Ilmiy manbalarga koʻrsatilishicha, “qoʻllanish doirasi chegaralangan leksika uch guruhga boʻlinadi: 1) dialektal leksika; 2) terminologik leksika; 3) noadabiy leksika (argo va jargon)” [1;142].

Adabiyotlar tahlili. Til barqaror kategoriya sifatida grammatik qurilishi va lugʻat tarkibining tez suratda oʻzgarib ketishiga yoʻl qoʻymaydi. Shu sababli ham adabiy til taraqqiyotining turli tadrijiy bosqichlarida qoʻllangan soʻzlar, grammatik

shakllar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham saqlanib kelmoqda. Biroq ayni paytda til ijtimoiy hodisa bo'lgani bois, jamiyat taraqqiyoti, o'zgarishi bilan bog'liq ravishda lug'at tarkibining qo'llanish davri, qo'llanish doirasiga ko'ra ayrim o'zgarishlarga uchraydi. Bu holat XX asr boshlaridagi davr adabiy tili leksikasining hozirgi o'zbek adabiy tili materiallari bilan qiyosan tahlilida ham ko'zga tashlanadi. Tilda bo'ladigan bunday barqarorlik va o'zgarishlarni tahlil qilganda, tarixiylik nuqtayi nazaridan jamiyat taraqqiyoti bilan bog'lab o'rganish zarur hisoblanadi. Leksemalar semantik tabiatidagi uzual hamda okkazional ma'no o'zaro farqlanadi. Uzual ma'no ma'lum so'zning semantik strukturasida avvaldan shakllangan leksik ma'noning matnda aniqlashgan holati bo'lsa, okkazional ma'no nutq jarayonida ma'lum so'zga sun'iy yuklangan ma'nodir. Ya'ni nutqni ixchamlashtirish yoki subyektiv munosabatni ifodalash maqsadida so'zni yangi ma'noda qo'llash. Demak, bunday lisoniy hodisa muallifning matnda leksemani favqulodda yangi ma'noda qo'llashi yoki g'ayriodatiy tarzda yangi so'z yasashi natijasida yuzaga keladi. Leksemaning matn tarkibidagina anglatgan bunday ma'nosi muvaqqat ma'no hisoblanadi. Bunday hodisa natijasida yuzaga kelgan birliklar okkazionalizmlar hisoblanib, lug'atda ularga quyidagicha ta'rif berilgan: "*okkazionalizm* – mahsuldor bo'lmagan model asosida yasalgan va shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizm" [3;74].

Leksik sathda chegaralangan lug'aviy birliklar qatoriga tildagi yangi kirib kelgan yoki yasalgan so'zlarni, ya'ni *neologizmlarni* ham kiritish mumkin. Neologizmlar ikki turli: *o'zlashma neologizm* hamda *yasama neologizm* bo'ladi [4;275]. O'zbek tili leksikasi taraqqiyotining barcha davrlarida ham yangilik buyog'ini aks ettirgan so'zlarga ehtiyoj bo'lgan. Buning natijasida yangilik bo'yog'idagi leksemalar o'z qatlam so'zlari asosida yasalgan yoki chet tillardan o'zlashtirilgan. Bunday birliklar kirib kelgan tili uchun neologizm sanalsada, o'zi mansub bo'lgan til uchun neologizm bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Neologizmlarning semantikasi va grammatik tuzilishidagi yangilik belgisiga davriy jihatdan qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiq etilayotgan obyekt, ya'ni Hoji Muin

publitsistik maqolalari tilidagi leksemalarning aksariyatini qo'llanish doirasi chegaralanmagan, umumiste'moldagi leksika tashkil etib, ular hozir ham o'zbek tilida so'zlashuvchilarning barachasi tomonidan keng qo'llanadi. Lekin shu bilan birga, adib maqolalari tilida iste'mol doirasi chegaralangan leksik birliklar ham mavjud. Maqolada jadid ma'rifatparvar adibi Hoji Muin Shukrullo o'g'lining publitsistik maqolalari matnida qo'llangan neologizm okkazional yasalmalar va neologizmlarni chegaralangan leksika nomi ostida tahlil qilishni lozim topdik.

Tahlillar va natijalar. Okkazionalizmlar ham chegaralangan lug'aviy birliklar sanaladi, chunki ular muallifning so'z ijodkorligi, individual uslubi natijasida yuzaga kelgan birliklar hisoblanadi. Ularni nutqda qo'llashning ma'lum chegarasi mavjud. Adabiy til ularni norma sifatida qabul qilmaydi, muallifning so'z ijod qilishdagi mahoratining mahsuli bo'lgan bunday birliklar umumiste'moldagi leksika tarkibidan joy olmaydi. Hoji Muin publitsistik maqolalari matnida ham bunday qo'llanishlar kuzatiladi va ularning deyarli barchasi g'ayriodatiy tarzda yuzaga kelgan nutqiy yasalmalar hisoblanadi: *“Emdi umid etarmizki, nifoq, insoniyat va xudbinlik balosi boshimizdan ko'tarilsun, inshoolloh, munda so'ng bu nifoq va maktabsizlig'imizning chorasi uchun harakat etishurmiz”* [2;59]; *“Vag'un trizasindan boshimni chiqarib ushbu yil yomg'ursizlikdan ekin bo'lmag'on yerlarga qaramoq ila barobar turli fikrlarga cho'mib ketdim”* [2;72]; *“Bir necha yildan beri kishisizlikdan yopilib yotqon “Zarafshon” kitobxonasini tirgizdim va uni bir oz tartibga soldim”* [2;119]. O'zbek tilida mahsuldor so'z yasovchi hisoblangan *“-lik* affiksi ot, sifat va ravish turkumiga oid so'zlardan ot yasaydi. So'z yasaliş asosining qaysi so'z turkumiga oidligi, shuningdek, ayni turkumga oid so'zlarning ma'no xususiyatiga qarab *-lik* affiksi so'z yasalişining turli tipiga oid otlar yasaydi” [5;69].

Me'yoriy yasalişda bu affiks shaxsning xarakter, xususiyat, qiliq jihatidan belgisini bildiruvchi sifatlardan ot yasaganda, asosdan anglashilgan xarakter-xususiyat, qiliq, xatti-harakat nomini ifodalovchi otlarni yasashi kerak: *axloqsizlik*,

ilmsizlik kabi. Biroq maktabsiz, yomg'ursiz, kishisiz sifat leksemalariga qo'shilib belgi oti yasashi jihatdan bu affiksning so'z yasash imkoniyati cheklangan. Demak, o'zbek tilining barqaror so'z yasash andozalariga muvofiq kelmaydigan bunday yasalishni okkazional yasalish, shu asosda yuzaga kelgan *maktabsizlik, yomg'ursizlik, kishisizlik* yasalmalarini esa okkazionalizmlar deb baholashimiz mumkin.

Shaxs oti yasovchi *-chi* hamda mavhum ot yasovchi *-lik* affiksining birikuvidan hosil *-chilik* yasovchi morfemasi so'z yasalish asosi ifodalagan narsaga xos tarzda, shu bilan xarakterlanuvchi ish-faoliyatni, xatti-harakatni bildiradigan otlar yasashi mumkin: *qo'shnichilik, tavakallchilik, og'aynigarchilik* kabi. Muallif ushbu yasalish modeli asosida axloqchilik, bog'chachilik so'zlarini yasaganki, bu leksemalarning ham mavjud lug'atlarda uchramasligi ularning okkazional birlik ekanligini tasdiqlaydi: *"Bu maktablarning ibtidoiy qismida talabalarg'a ona tilidan oson va ravshan o'quv, yozuv, hisob, jug'rofiya, tatix, axloqchilik, dehqonchilik, bo'g'chachilig' kabi xalq uchun foydali ilmlar o'rgatilur"* [2;89].

Ba'zi o'rinda *-chilik* murakkab yasovchi affiks o'rnida *-lik* yasovchi sifatida qo'llangan: *"Mana shu tadbirni ixtiyor etgan taqdirdagina biz yuqorida aytilgan qiyinliklardan bir daraja qutilamiz"* [2;93].

O'zbek tilida egalik belgisini bildiruvchi sifat yasovchilar guruhidagi *-li* affiksi odatda shaxs yoki narsa-predmetning asosdan anglashilgan narsaga egaligi, unda shunday narsa bor bo'lgan belgi bildiruvchi sifat leksemalar yasaydi: *baxtli, oriyatli* kabi. Biroq bu affiksning *-lik* affiksi bilan yasalgan mavhum otlardan sifat yasash holati yo'q. Muallif matnda *-lik* ot yasovchi hamda *-li* sifat yasovchi affikslar ishtirokida noodatiy yasalishni amalga oshirgan va natijada ISHLIKLI morfologik okkazionalizmi yuzaga kelgan: *"O'tgan yil shundaqa o'g'ularg'a aldanib vatandan qochg'an, yo'lda ushlanib, turmalarga qamalgan bir necha birodarlaringiz bu yil sizning jamiyatingizning ishlikli eng faol yigitlaridandir"* [2;107]. Maqolalar matnida yuqoridagi kabi tildagi umumiy uzual qonun-qoidalariga nomuvofiqlik tarzda yasalgan okkazional birliklarni *noxulq*

[2;78]; *najjorliq* [2;89]; *qarornona* [2;86]; *ijtimoiygoh* [2;54]; *qadrshunoslik* [2;75]; *ariqlanur* [2;151] kabi yasalmalar misolida ham ko‘rish mumkin.

Yuqorida tahlilga tortilgan okkazionalizmlar lisoniy va aloqaviy-uslubiy tabiatining o‘ziga xos belgilari, ya’ni yuzaga keilish sababi, atash-nomlash xususiyati, g‘ayriodatiyligi hamda so‘z yasash qoidalariga munosabati bilan neologizmlardan farq qiladi. Adib maqolalari tilidagi bunday birliklar XX asr boshlaridagi davr adabiy tilining morfemika, so‘z yasalishi tizimida yuz bergan muvaqqat beqarorlikni aks ettiradi. Lisoniylashish maqomiga ega bo‘lmagan, yani til lug‘at fondiga kirmagan bunday birliklar muallif maqolalari lug‘aviy tarkibidagina qo‘llangan. Chegaralangan leksika tarkibida shaxsiy-ijodiy, matniy-uslubiy hodisa, nutqiy-uslubiy vosita sifatida til va nutq o‘rtasidagi nomuvofiqlik, nomutanosiblikning o‘ziga xos ifodasi sifatida yuzaga kelgan.

Tilning fonologik tuzilishi, grammatik qurilishi o‘zgarmas kategoriya sifatida o‘zida barqarorlikni ifodalasa, lug‘at boyligi ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga mos ravishda rivojlanib boradi. Leksik sathdagi “bu jarayon tilning dinamikasini aks ettiradi va yangi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitga moslashuvchanligini ta’minlaydi. Til rivoji uchun yangi so‘z yaratish va o‘zlashmalarni qabul qilish muhimdir. Bu jarayon ijtimoiy hayot, texnologik yangiliklar va madaniy almashinuvlarda aks etadi” [4;275]. Leksik sathda chegaralangan lug‘aviy birliklar qatoriga tildagi yangi kirib kelgan yoki yasalgan so‘zlarni, ya’ni *neologizmlarni* ham kiritish mumkin. Neologizmlar ikki turli: *o‘zlashma neologizm* hamda *yasama neologizm* bo‘ladi. O‘zbek tili leksikasi taraqqiyotining barcha davrlarida ham yangilik buyog‘ini aks ettirgan so‘zlarga ehtiyoj bo‘lgan. Buning natijasida yangilik bo‘yog‘idagi leksemalar o‘z qatlam so‘zlari asosida yasalgan yoki chet tillardan o‘zlashtirilgan. Bunday birliklar kirib kelgan tili uchun neologizm sanalsada, o‘zi mansub bo‘lgan til uchun neologizm bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Neologizmlarning semantikasi va grammatik tuzilishidagi yangilik belgisiga davriy jihatdan qaraladi.

Tahlil etilayotgan Hoji Muin publitsistik maqolalari tilidagi davriy jihatdan yangilik bo‘yogi’ga ega bo‘lgan, adabiy tilda keng qo‘llanishda bo‘lmagan

soʻzlarni ham neologizmlar qatorida oʻrganish lozim boʻladi. Maqolalar matnida uchragan, yangilik boʻyogʻiga ega boʻlgan neologizmlarning deyarli barchasi oʻzbek tilining taraqqiyot qonunlariga mos holda hosil qilingan, davr adabiy tilida maʼlum maʼnoni anglatgan umumtil neologizmlaridir. Hoji muin publitsistik asarlarida uchragan neologizmlarning deyarli barchasi umumtil neologizmlari hisoblanadi. Ularning yasalishi, qoʻllanishi boʻyicha turlari quyidagicha:

1) Oʻzlashma lugʻaviy birlikning neologizm sifatida aynan qoʻllanishi: *“Bular bilan kurashish yolgʻiz hajviy jurnallarimizning kulgilik maqola va **karikaturalari** bilan boʻlmas”* [2;139]; *“1922-yilning boshlarida partiyaning sarkotibi Mavlonbekov “Kambagʻallar tovushi” gazetasiga muharrir tayin etildi. Bu kishi gazetaga endi rivoj beraman, deb turgan chogʻida oʻzi Xoʻjandga **komandirovka** boʻlib ketdi”* [2;131]; *“1919-yilda **poligraficheskiy otdelning** ruscha gazetasiga 250 pud kogʻoz berganligini eshitib, biz ham yozib, musulmon gazetasi uchun kogʻoz soʻradik”* [2;129]; *“Gʻazetalarda oʻqigʻonimizga koʻra Toshkandda boʻlib oʻtgan **kommunistlar seʻyezdida** Tobulin afandi tarafidan musulmon tilini rus tili bilan bir huquqda barobar etmak masalasi qoʻzgʻatilgʻon”* [2;86]. Bu oʻrinda *karikatura*, *komandirovka* leksemalari; *poligraficheskiy otdel*, *kommunistlar seʻzdi* birikmalari aynan qoʻllangan oʻzlashma neologizmlar hisoblanadi.

2) Oʻzlashma neologizmning aynan va turli shaklda qoʻllanishi. Maqolalar matnida ruscha va rus tili orqali oʻzlashgan bir neologizmning aynan hamda oʻzgargan shaklda qoʻllanishlari ham mavjud. Bu holatni chetdan soʻz oʻzlashtirish, oʻzlashma soʻzlarni davr adabiy tilida qoʻllash boʻyicha aniq lisoniy meʼyorlar belgilanmaganligi bilan izohlash oʻrinli boʻladi: *“Bu kunlarda Turkistonning “fotihi” **general gubernator** Fon Kaufmanning Samarqand shahrini olgʻondan keyin xalqni tinchliqqa daʼvat qilib yozgʻon bir xitobnomasining nusxasi qoʻlimizga tushdi”* [2;139]; *“Turkiston **jeneral gʻubernatori** barchani ogoh boʻlmoq uchun maʼlum qiladur”* [2;140]; *“Turkiston **heneral gʻubernaturi** Fon Kaufman imzo chekdilar”* [2;141]. Keltirilgan misollar muallifning “Maorif va oʻqituvchi” jurnalining 1926-yil 1-sonida eʼlon qilingan “General Fon

Kaufmannning xitobnomasi” nomli maqolasidan olingan. Kuzatganimizdek, “XX asr boshlaridan 1917-yilgacha Rossiyada bir necha guberniya yoki viloyatlarni o‘z ichiga olgan ma‘muriy-hududiy birlikning oliy harbiy-ma‘muriy huquqlariga ega bo‘lgan hokimi” [6;493] nomini ifodalovchi o‘zlashma neologizm bir maqolada uch xil shaklda qo‘llangan.

3) O‘zlashma neologizmning izoh bilan berilishi. Muallif o‘zlashma neologizmlar o‘rniga mumkin qadar turkiycha muqobil so‘z ishlatishga harakat qilgan ekan, tanlangan so‘zning adabiy tilda norma sifatida me‘yorlashmagani uchun uni qavs ichida beradi: “O‘z nafslarinidushmandin muhofaza qilmoq uchun turli o‘loti harbiya ijod etmakdadurlarkim, alarning orasida oyandag‘a eng muhimi **ayruplan (tayyora)** degan baloi osmoniy bo‘lsa kerak” [2;67]; “Bir necha kishilar saylov **uchastka (qit‘a)**larida sho‘rochilar tarafidan uruldilar, so‘kuldilar, takfir qilidilar [2;69]; “Aksar xastalik bemavrud va zararlik taom yemoqdan paydo bo‘lur. Suv icharmiz va aning **mikrub (mayda qurt)**lari va nopokligig‘a diqqat etmaymiz” [2;68]. Bunday qo‘llanish *medal – nishon* [2;166]; *plan – reja* [2;175]; *sabachniy yashchik – it uyasi* [2;151] kabi neologizmlarda ham kuzatiladi.

4) Neologizmlarning kalkalash yo‘li hosil qilinishi. Adib publitsistikasida davrning ijtimoiy realiyalari bilan bog‘liq holda kalkalash yo‘li bilan hosil qilingan neologizmlar ham mavjud: **uchlik** – troyka [2;154]; **obko‘m** – oblastnoy komitet [2;130]; **ijroqo‘m** – ispolkom [2;130]; **baynalmilliy** – baynalmilal [2;112]; **senzur** – senzura [2;128]; **rayqo‘m** – rayonnoy komitet [2;157] kabilar. “Shu choqlarda **obko‘m** partiyada rus va musulmon gazetalarini yo‘lga qo‘yish xususida muzokara majlisi bo‘ldi” [2;130].

5) Neologizmlarning tildagi mavjud leksik birliklar va grammatik qonun-qoidalar asosida yasalishi: “Bu gazeta boshda **volostnoyxona va qozixonalar** kabi idoralarg‘a majburiy suratda oldirilg‘oni uchun xoh-noxoh o‘qilur edi [2;120]; “Muhtaram sho‘ro va **baladiya idorasindan** o‘tinamizkim, bu masalag‘a ahamiyat berib, bu to‘g‘rida tezroq tadbir ko‘rarg‘a kirishgaylar [2;87]). Misollarda ajratib ko‘rsatilgan neologizmlarni tahliliy o‘rganaylik. Birinchi misolda “Chor

Rossiyasida va SSRda 1919-1929-yillardagi rayonlashtirishga qadar yezd tarkibiga kiruvchi quyi ma'muriy-hududiy bo'linma nomi, ya'ni VOLOST" [6;467] neologizmi asosiga *-xona* affiksoidini qo'shish bilan asosdan anglashilgan narsa bilan bog'liq holda amalga oshiriladigan ish-faoliyat joyini ifodalovchi *volostnoyxona* neologizmi yasalgan. Xuddi shunday *-xona* affiksoidini *qozi* leksemasiga qo'shish bilan asosdan anglashilgan faoliyat olib boriladigan joy nomi ifodalangan *qozixona (sud ma'myriyati)* neologizmi hosil qilingan. O'rin-joy, tashkiliy tuzilma ma'nosini ifodalovchi, BALADIYA IDORASI qo'shma oti esa o'sha davrdagi "kommunal xo'jalik" o'zlashma lug'aviy birligiga muqobil tarzda kompozitsion usulda yasalgan neologizm hisoblanadi. Demak, bu neologizmlar o'zbek tilidagi avvaldan mavjud leksemalar ishtirokida, so'z yasashdagi grammatik qonun-qoidalar asosida yuzaga keltirilgan lug'aviy birliklardir.

6) Fonetik tuzilishi, morfologik tarkibi o'zgartirilgan holda qo'llangan neologizmlar. Mazkur davrdagi arab grafikasi xususiyatlari bilan bog'liq holda ruscha-baynalmilal so'zlarning fonetik tuzilishi, morfologik tarkibi o'zgargan shaklda, jonli xalq tilidagi variantlari holida maqolalar matniga kiritilgan: *paraxud, telegrof, po'chta* [2;62]; *missiyunerlik* [2;75]; *o'ktabr manifesti* [2;121]; *tiyotru* [2;83]; *isxulostiki* [2;61]; *kondo'xtur* [2;172]; *o'rusiya* [2;140]; *prutest* [2;59]; *no'ta* [2;107] *vag'un* [2;72] kabi neologizmlar qo'llanishida kuzatiladi.

XX asr boshlarida sezilarli darajada o'zgargan ijtimoiy, siyosiy, madaniy sharoitda yuzaga kelgan yangiliklar asosidagi voqea-hodisa va tushunchlarni nomlash davr talabi edi. Davr ziyolilari oldida turgan muhim vazifalardan biri ham mazkur davrda o'zbek adabiy tilining boshqa tillarga munosabati, ular bilan aloqasi qay tarzda namoyon bo'lishi kerakligini hal etish edi. O'zlashgan so'zlarga munosabat masalasida davr ijodkorlari turlicha fikrda bo'lishgan. Adabiy til muayyan bir me'yorga kelmagan mazkur davrda har bir muallif o'zining dunyoqarashi va iqtidoridan kelib chiqib bunday birliklarni neologizm sifatida o'z asarlari matniga kiritgan. Publitsist sifatida Hoji Muin Shukrullo og'lining ham neologizmlarni turlicha shaklda qo'llagani fikrimizni tasdiqlaydi. Chegaralangan leksika tarkibida qo'llangan neologizmlarning ayrimlari umumtilga xos

neologizmlar sifatida nominativ funksiyani bajargan bo'lsa, ayrimlari nutqiy neologizmlar sifatida muallif asarlari tiligagina tegishli bo'lgan uslubiy xoslikni ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek tili (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik). – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020-yil. – 536 b.
2. Ҳожи Муин. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 256 б.
3. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б.74.
4. Mengliyev B., Ergasheva G., Hamroyeva Sh. Tilshunoslik asoslari (darslik). – Toshkent: “Dimal” nashriyoti, 2025 – 492 b.
5. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиш тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б.69.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. I жилд. Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriёti, 2020. – 680 б.